



## **OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI TALABALARIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANТИРISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

## **Maxkamova Masturaxon,** *Oo 'qon Universiteti o 'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada oliv ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning bugungi kundagi ta'lim jarayonida oliv ta'limning ahamiyati muhumligi, Jahondagi globallashuv jarayonlari, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj, Mutaxassislar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash, pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri ekanligi, Kreativ mutaxassislarni shakllantirish zamonaviy jamiyat ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** bilim, ta'lim, intellek, intellektual, kompetentsiya, Kreativ, keryativlik, ijod, ijodkorlik, pedagog, iqtidor, ilim, PISA, PIRLS

Bugungi kunda fan va texnikaning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bunday jamiyatda kreativ sifatga ega bo'lgan pedagog kadrlarga ehtiyoj ortib, ularda shaxsiy kompetentsiyasini yuksak darajada bo'lislarni talab etadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida oliy ta’limning ahamiyati muhim sanaladi. Har qaysi rivojlangan davlatlar strategiyasiga ahamiyat qaratadigan bo’lsak, erishilgan yutuqlarning boshlanishi, inkor etib bo’lmaydigan intellektual imkoniyatlar ta’lim tizimini isloh qilish orqali amalga oshirilganini ko’rishimiz mumkin.

Jahondagi globallashuv jarayonlari, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj, fan- texnika taraqqiyoti yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratish bilan birga, ularning oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intelektual salohiyatni oshirish kabi qo'plab talablarni qo'ymoqda.<sup>1</sup>

Mutaxassislar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash, pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri – ularda shaxsiy-kreativ kompetentsiyani rivojlantirishdan iborat.

Kreativ mutaxassislarni shakllantirish zamonaviy jamiyat ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. SHuning uchun bugungi kun ta’lim jarayonida kreativ o’qitish, har qanday vaziyatga nisbatan noodativ vechim topish davri talabi.

Aslida kreativlik xar sohada muxim ekanligi, kreativ shaxsni tarbiyalash jamiyat rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy sohada kutilmagan yutuqlarga erishish va dunyoda o'z statusiga ega bo'lishga intilgan jamiyat kishisi uchun ahamiyatli sanaladi.

**Yurtboshimiz SH.Mirziyoev ta'kidlaganidek, buyuk mutafakkir shoirimiz Mir Alisher Navoiy o'z davrida yoshlarga murojaat qilib, "Quvoshliq istasang,**

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 18 январдаги 23-сонли “Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепцияси”га 1-ишса, 1 боб. Умумий коидадар



**kasbi kamol et”, deb yozganlar.** CHindan ham, odamlarga quyoshdek beminnat nur taratishni, yaxshilik qilishni istaydigan inson, kamolotga intilib, turli ilm va kasb-hunarlarini o’zlashtirishi lozim.<sup>2</sup>

Bugungi tezkor davrda boy tasavvurga, ijodkorona g’oyalarga, keng ma’noda kreativ sifatlarga ega bo’lmay turib, buyuk bobomiz ko’zlagan maqsadga erishib bo’lmaydi desak, adashmagan bo’lamiz.

Respublikamiz va xorijiy mamlakat olimlari tomonidan kreativlik sifatlari, kreativ o’qitishning mazmun moxiyati, pedagogik, psixologik va falsafiy nuqtai nazardan ko’p qirrali xususiyatlari bo’yicha bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Jumladan, N.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Sayfurov, A.To’raevlarning fikricha, shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg’ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo’ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. “Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi”<sup>3</sup> deb ta’kidlaydilar.

Kreativlikni o’rganish bo’yicha pedagogik faoliyatning o’ziga xosliklari va yondashuvlarni inobatga olib, “pedagog kadrlarning kreativligini: faoliyatli, samarali, shaxsiy, muhitga doir, muammoli askpektlarda ko’rib chiqish lozimligini”<sup>4</sup> A.Aripjanova o’z qarashlarida aniqlagan.

G.Ibragimova “kreativlik – yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog’liq ko’nikmalar majmui sifatida namoyon bo’ladi”<sup>5</sup>. Kreativlik o’z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko’ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiya kabi sifatlarni qamrab oladi degan g’oyani ilgari suradi.

SH.Pozilova esa tadqiqot ishida “kreativlik deganda shaxsning nostardart fikrashi natijasida yangi, original g’oyalarni yaratishga qaratilgan faoliyati”<sup>6</sup> degan xulosani beradi. Uning qarashlari tadqiqotchi G.Ibragimovaning kreativlikka bergen ta’rifining davomi sifatida ifodalanmoqda.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Б- 12.

<sup>3</sup> Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. – Т.: - 2015, - 72.

<sup>4</sup> Арипджанова А. Таълимни ахборотлаштириш шароитида олий таълим муассасалари педагогларининг креатив салоҳиятини ривожлантириш. п.ф. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. – Т.: -2017.

<sup>5</sup> Ибрагимова Г. Интерфаол ўқитиши методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш. п.ф. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. – Т.: -2017.

<sup>6</sup> Позилова Ш.Х. Олий таълим муассасалари тингловчиларини қайта тайёрлаш ва малака ошириш курсларида креатив ўқитиши методикаси. Педагогика йўналиши бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. – Т.: -2019. - б 22.



Falsafiy entsiklopediya lug'atida<sup>7</sup> kreativlik (lotincha creo-ijod etmoq, yaratmoq) berilgan jarayon va muammolarni noodatiy ko'rinishda yechimini topishga yo'naltirilgan ijodiy o'zgarishlarga bo'lgan qobiliyat sifatida tavsiflanadi.

Psixologik nuqtai nazardan kreativlik "insonning ijodiy imkoniyatlarini namoyon bo'lishi (fikrlash, xis-tuyg'ular, muloqot, shaxsiy faoliyat) sifatida qaraladi va umumiyl holda uning alohida jihatlarini, faoliyat mahsulotlarini, ularni yaratish jarayonini tavsiflaydi".<sup>8</sup>

Z.T.Nishanova o'zining doktorlik dissertatsiyasida kreativlikning ko'plab ta'riflarini tahlil kilib, ijodiy fikrlashning modelini yaratadi. U "ijodiy fikrlashni tasavvur, tushuncha, bilim, ko'nikma, fikr, e'tikod va motivatsiyaga asoslangan holda amalga oshirish lozimligini ta'kidlaydi".<sup>9</sup>

Bugungi kunga kelib aqilli, ilmli va kreativ fikrlaydigan yosh avlod bilan dunyoni turli inqirozlardan saqlab qolish mumkinligini jaxon mamlakatlari olimlari ta'kidamoqdalar. Talim tizimida kreativ, tanqidiy, mantiqiy, ilmiy bilimlarni baholashga qaratilgan xalqaro baxolash dasturlari standartlaridan (PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS) foydalanish, va o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llashga oid ta'lim siyosati muxim axamiyat kasb etmoqda. Xalq ta'limi sohasiga kirib kelgan ushbu baxolash dasturlarining kirib kelishi oliy ta'lim tashkilotlarida taxsil olayotgan bo'lajak mutaxassislarining kasbiy va shaxsiy kreativ kompetentsiyalarini rivojlantirishni talab etadi. Vaqt o'tishi bilar ushbu xalqaro baxolash dasturlari standartlari asosida taxsil olgan o'quvchilar oliy ta'lim tashkilotlari talabalari bo'ladilar. Biz o'qitayotgan talabalar esa ta'lim muassasalarida o'qituvchi sifatida o'zining shaxsiy kreativ kompetentsiyalarini namoyon etishlari kerak bo'ladi. SHu o'rinda xalqaro baxolash dasturlari mazmun moxiyatiga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik

<sup>7</sup> Философия: Энциклопедический словарь. Под ред. А.А.Ивина. – М.: Гардарика, 2004. -1072 с. (ISBN 5-8297-0050-6).

<sup>8</sup> Большой психологический словарь. – М.: Прайл-ЕВРОЗНАК. Под ред. Б.Г.Мещерякова, акад. В.П.Зинченко. 2003. 92с.

<sup>9</sup> Нишанова З.Т. Мустакил ijodiy fikrlashni rivojlanтиришнинг психологияк асослари. Псих. фан. док. ...дисс. Т.: 2005. - 97 б.



qilish muhim ahamiyatga egadir. SHu o'rinda xalqaro baxolash dasturlari mazmun moxiyatiga to'xtalib o'tmqchimiz.

SHu bilan birga, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi:

PIRLS – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash;

TIMSS – 4- va 8-sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash;

TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish;

PISA – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash.

Ushbu loyihalar yoshlarning ijodiy, kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalar, yegallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunga qadar Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi o'rtasida imzolangan kelishuvlarga muvofiq 2021-yilda PISA va PIRLS xalqaro dasturlarida ishtirok yetish rejalashtirilgan.

Mazkur tadqiqotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi o'quvchi-yoshlarning savodxonlik darajalari ilk bor sinab ko'rilar yekan, bunga o'ta mas'uliyat bilan tayyorgarlik ko'rish talab yetiladi. Buning uchun, xalqaro tadqiqotlar talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tajriba sinovlar o'tkazish, o'quv jarayonlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilib borish orqali o'quvchilarda maxsus ko'nikmalarni rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Bugungi tezkor davrda boy tasavvurga, ijodkorona g'oyalarga, keng ma'noda kreativ sifatlarga ega bo'lган Kreativ mutaxassislarini shakllantirish zamonaviy jamiyat ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. SHuning uchun bugungi kun ta'lim jarayonida kreativ o'qitish, har qanday vaziyatga nisbatan noodatiy yechim topish davr talabidir.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V, Nishonova Z. Mustaqil ijodiy fikrlash va shaxsning hissiy, irodaviy va intellektual hislatlari orasidagi bog'lanish // J. Xalq ta'limi, 2001. № 3-6.-B.-64-69.
2. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Pedagogik



kompetentlik va kreativlik asoslari. – T.: - 2015, - 72

3. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari. Psix. fan. dok. ...diss. T.:
4. Qizi, I. M. I. (2021). Mohlaroyim nodira's skill in using a satellite. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1048-1052.
5. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).
6. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 121-123.
7. Muratovich, M. F., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). TA'LIMDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING ROLI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 237-240.
8. Axadjon o'g'li, A. A. (2024). JSTGA A'ZOLIKNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA VA TA'LIMGA IJOBIY TA'SIRI. *Analysis of International Sciences*, 2(1), 95-102.
9. Akhrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). IMPACT, RESULTS AND CONSEQUENCES OF WTO ACCESSION ON THE EDUCATION SYSTEM. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(1), 6-15.
10. Abdullaev, A., & Odilova, M. (2024). THE ROLE OF WTO IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(1), 140-148.
11. Maxliyoxon, O., & Shaxnozaxon, J. (2024). DRAMA AND ARTISTIC READING IN PRIMARY GRADES: Study guide. ISBN-13, 979-8324468415.